

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

Baxtiyor Abdushukurov

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

Zulxumor Xolmanova

Omonimlar – tafakkur omili.....30

Sanjar Mavlyanov

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

Elyor Xonnazarov

O'zbek tilshunosligida zamoni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

Muhittin Gümüş

Bâbürnâme'nin edebî tür açisindan özellikleri.....78

Fan. Ta'lim. Metodika

Dilnavoz Yusupova

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Nazm va navo xususida.....104

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirboev

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

Bakhtiyar Abdushukurov

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

Zulhumor Kholmanova

Homonyms – a factor of wisdom.....30

Sanjar Mavlyanov

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the
Uzbek language.....45

Elyor Khonnazarov

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

Literature. Translation studies

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâî and Pen66

Muhittin Kumush

Features of Baburname as a literature genre.....78

Science. Education. Methodology

Dilnavoz Yusupova

Modern technologies and use of methods (in the example
of "Farhod and Shirin").....89

Art

Oqilkhon Ibrohimov

About poetry and melody.....104

O'zbek tilshunosligida zamonnii ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi

Elyor Xonnazarov¹

Abstrakt

Maqolada zamonnii ifodalovchi grammatik shakllarning o'zbek tilshunosligidagi ayrim tasniflari o'rganilgan. Zamon kategoriyasi ko'p o'rganilgan mavzulardan biri bo'lishiga qaramay grammatik shakllarining miqdori va tasnifi borasida bir fikrga kelinmagan. Shuningdek, ba'zi tasniflarda barcha zamon shakllari to'liq qamrab olinmagan. Tasniflardagi bu har xilliklar sabablaridan biri o'zbek tilida zamon va mayl kategoriyalarining uzviy bog'langanligidir. Qolaversa, tasniflarda ajratilgan hozirgi-kelasi zamon atamasi ham tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jahon tilshunosligida zamonlar tasnifida vaqtning uch nuqtasi: nutq momenti (N), ishora vaqt (I), harakat-holat vaqti (H) hisobga olinadi. Maqolada o'zbek tilidagi zamonnii ifodalovchi grammatik shakllar NIH munosabatidan kelib chiqqan holda tasniflangan.

Kalit so'zlar: *zamon, zamonlar tasnifi, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, nutq momenti, ishora vaqt, harakat-holat vaqti.*

Kirish

O'zbek tilining grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiq etish XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Bu davrda zamon kategoriyasi tadqiqining o'ziga xos xususiyati formal-tavsifiy metod asosida zamonga ishora qiluvchi har bir grammatik shaklning tavsifi berilishida ko'rinadi. Biroq aynan qaysi shakllar zamonga ishora qilishi, ularning tasnifi, zamonlarning ichki bo'linishi borasida bir to'xtamga kelinmadi. Shu sababli zamon shakllari miqdori ham turli manbalarda turlicha berildi. A.Hojiyev o'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasining o'rganilishidagi asosiy muammolardan biri zamonnii ifodalovchi grammatik shakllarning ro'yxati va ularning tasnifidagi turli-tumanlikka e'tibor qaratadi. Olim har bir zamon shak-

¹Xonnazarov Elyor G'ofurovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

Iqtibos uchun: Xonnazarov E.G'. 2022. "O'zbek tilshunosligida zamonnii ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 55-65.

lining o'ziga xos xususiyati haqidagina emas, hatto, hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'ning qaysi zamoni qanday shakllarga egaligi haqida ham shu vaqtga qadar bir xil fikrga kelinmaganligini alohida ta'kidlaydi [Xожиев 1973, 128]. Tilshunos olimning mazkur mulohazalari bugun ham o'z kuchida turibdi. Bizningcha, buning asosiy sabablari-dan biri o'zbek tilda zamon va mayl kategoriyalarining chambarchas bog'liqligida va tanlangan grammatik shakllarning ham zamon, ham mayl ma'nosini ifodalashida ko'rinadi. Masalan, A. Sulaymonov "Fe'l zamonlari" kitobida o'tgan zamon hosil qiluvchi 24 ta invariant sintetik va analitik shaklni ko'rsatsa [Сулаймонов ва б. 1962, 4-17], A. Hojiyev "O'zbek tili grammatikasi"da 10 ta shunday shaklni qayd etadi [Xожиев 1975, 477]. A. G'ulomovning "Fe'l" risolasida o'tgan zamon shakllari soni 7 ta [Фуломов 1954, 22-30], 1966-yilda mualliflar jamoasi tomonidan chop ettirilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili I (Fonetika, leksikologiya, morfologiya)" darsligida esa ularning soni 12 tani tashkil etadi [Жўраева 1966, 288-294]. Boshqa zamon shakllari miqdorida ham shunday har xilliklar kuzatiladi.

Fe'ning zamon kategoriyalari

A. G'ulomovning "Fe'l" risolasida o'zbek tilshunosligida fe'ning zamon kategoriyasini sinxronik formal-tavsifiy metod asosida atroflicha tadqiq etiladi [Фуломов 1954, 19-38]. Grammatik zamon kategoriyasi obyektiv mavjud bo'lgan vaqt hodisasining tilda aks etish formalaridan biri sifatida baholanadi. Tadqiqotda fe'ning zamonini belgilashda nutq momenti asos sifatida olinadi. Olim o'tgan zamon shakllarini ma'nosiga ko'ra olti guruhga ajratadi: o'tgan zamon aniqlik fe'li (*-di*), tarixiy o'tgan zamon fe'li (*-gan*), uzoq o'tgan zamon fe'li (*-gan edi*, *-gan ekan*), o'tgan zamon hikoya fe'li (*-b edi*), o'tgan zamon eshitilganlik fe'li (*-b*, *-ib*), tugallanmagan o'tgan zamon fe'li (*-r edi*). Hozirgi zamon shakllari esa hozirgi-kelasi zamon (*-a*, *-y*) va konkret hozirgi zamon (*-yap*, *-yotir*, *moq+da*) tarzida ikki guruhga ajratiladi. Kelasi zamonning ham ikki turi: kelasi zamon davom fe'li (*-adigan*, *-moqchi*), kelasi zamon gumon fe'li (*-r*, *-ar*) farqlanadi.

A. Hojiyev zamonnini ifodalovchi grammatik shakllarni quyidagicha tasniflaydi [Xожиев 1973, 130]:

1) o'tgan zamon formalari: *-di*, *-gan*, *-b (-ib)*, shuningdek, *edi* to'liqsiz fe'li bilan hosil qilinuvchi analitik formalar (*-gan edi*, *-b (-ib) edi*, *-yotgan (-ayotgan) edi*, *-moqda edi*, *-r (-ar) edi*, *-guvchi edi*);

2) hozirgi zamon formalari: *-yap*, *-yotib*, *-yotir*, *-moqda*, shuningdek, *yur*, *tur*, *o'tir*, *yot* ko'makchi fe'llari bilan hosil qilinuvchi analitik formalar;

3) hozirgi-kelasi zamon formalari: *-a, -y, -r (-ar), -mas*.

A. Hojiyev hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan faqat kelasi zamon ma'nosini ifodalovchi biror maxsus shakl yo'qligini, bu ma'no hozirgi-kelasi zamon shakllari orqali ifodalanishini qayd etadi [Xojiev 1973, 131] va shu sababli tasnifda kelasi zamon shakllarini alohida ajratib ko'rsatmaydi. Bizningcha, bu holatni bir zamon shaklining kontekstdan kelib chiqib boshqa zamon ma'nosini anglatishi bilan tenglashtirib bo'lmaydi *-a, -y, -r (-ar)* kabi shakllarning kelasi zamon ma'nosini anglatishi faqat kontekst ta'siridagina yuz bermaydi. Shu sababli tasnifda kelasi zamon shakllarining ham ajratilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kelasi zamon fe'llarini alohida tadqiq qilgan J. Jo'rayeva *-a, -y, -r, -ar, -(y)ajak, -(a)digan, -moqchi* kabi sintetik shakllarni, *-ar ekan, -ar emish, -sa ekan* kabi analitik shakllarini kelasi zamon shakllari sifatida keltirib o'tadi [J'orayeva 1961, 21]. E'tiborli jihati, olimi *-a, -y* shakllarning hozirgi-kelasi zamon fe'li hosil qilishini ta'kidlab, hozirgi-kelasi zamoni kelasi zamon ichida o'rganadi.

N.Musulmonova nomzodlik dissertatsiyasida zamon va mayl shakllarida kategorial, yondosh va hamroh ma'no ajratiladi [Musulmonova 2007, 112]. Bunda kategorial (mohiyat) va yondosh ma'noning lisoniy xarakterda, hamroh ma'noning nutqiy xarakterda ekanligi ko'rsatiladi va shu asosda zamon shakllari tasnifi amalga oshiriladi: *-di, -gan, -ibdi, gan+edi, edi, -(a)r di, ekan, emish* o'tgan zamon shakllari; *-yap, -yotir, -yotib, -moqda* hozirgi zamon shakllari; *-a, -y, -(a)r* hozirgi-kelasi zamon shakllari sifatida beriladi. Mayl va zamon kategoriyalarining chambarchas aloqasi e'tirof etilib, ularning o'zaro munosabatini tushuntirishda zamon shakllari uchun zamon ma'nosi kategorial, mayl ma'nosi yondosh ma'no maqomida bo'lishi, mayl shakllari uchun esa mayl ma'nosi kategorial, zamon ma'nosi yondosh ma'no maqomida bo'lishi qayd etiladi. N.Musulmonovanning fikrlari asosli ekanligini har bir mayl shaklining ayni vaziyatda zamonga ham ishora qilishida (a) va o'z navbatida, zamon shakllarining maylga ham ishora qilishida (b) ko'rishimiz mumkin. Masalan:

a) borsin – *-sin* buyruq-istak mayli shakli kelasi zamon ma'nosini ham ifodalaydi.

b) bordi – *-di* o'tgan zamon shakli xabar mayli ma'nosini ham ifodalaydi.

Zamon shakllari tasnifidagi turlicha yondashuvlar ko'p hollarda *-a, (-y)* shakli va u mansub deb qaralgan hozirgi-kelasi zamon bilan bog'liq. Bunda ayrim manbalarda hozirgi-kelasi zamon hozirgi zamoning bir turi sifatida taqdim qilinsa [G'ulomov 1954,

31; Турсунов ва б. 1975, 202; Мирзаев ва б. 1970, 48], айримlarida u kelasi zamonning turi sifatida ko'rsatiladi [Жўраева 1961, 22]. Tilshunos A.Hojiyev esa uni aniqlik va gumon shakllariga ega bo'lgan alohida zamon turi sifatida keltiradi [Ҳожиев 1973, 157]. Bundan tashqari hozirgi-kelasi zamon tarkibiga qaysi qo'shimchalar kirishi borasida ham bir xillik yo'q. *-r (-ar)* shaklini A.Hojiyev hozirgi-kelasi zamonning gumon formasi deb qarasa [Ҳожиев 1973, 159], bir qator tilshunoslar, xususan J. Jo'rayeva bu qo'shimchani kelasi zamonning gumon formasi deb hisoblaydi [Жўраева 1961, 22]. Bizningcha, obyektiv borliqda bo'lgani kabi tilda ham o'tgan, hozirgi, kelasi zamondan boshqa zamon bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, matn tarkibidagi har bir gap muayyan bir zamonga ishora qiladi, ya'ni bir shakl bir vaziyatda ham hozirgi, ham kelasi zamoni ifodalamaydi. Tasnifdagi bu har xilliklarning sababi hozirgi-kelasi zamon atamasining *-a (-y)*, *-r (-ar)* zamon shakllari ma'nosini o'zida aks ettira olmasligi bilan bo'g'liq. Bu shakllar qo'llanilishida asosan quyidagi ma'nolar yuzaga chiqadi:

1. Kelasi zamon ma'nosi: *Men ertaga ketaman. Bu kitobni, albatta, o'qiyman. Tushunib qolarmiz.* (Maqolada keltirilgan barcha misollar muallifga tegishli)

2. Umumzamon ma'nosi: *Men kasbimni sevaman. Ukam maktabda o'qiydi. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.*

Birinchi ma'nosi jihatdan *-a (-y)*, *-ar* shakllari sof kelasi zamoni ifoda qilyapti. Bu o'rinda ularga nisbatan hozirgi-kelasi zamon atamasining ishlatilishi yuqoridagi misollarda hozirgi zamon ma'nosining ham bo'lishini talab etadi. Lekin bunday ma'no yo'q. Qolaversa, *-a (-y)*, *-ar* shakllarining kelasi zamon ma'nosini ifodalashi faqat nutqiy qurshovda voqelanadigan holat ham emas. Shu sababli *-a (-y)*, *-ar* ko'rsatkichlarini bu holatda hozirgi-kelasi zamon shakli emas, balki kelasi zamon shakllari sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi misollarda doimiylik, umumzamon ma'nosi ifodalangan bo'lib, ularga nisbatan ham hozirgi-kelasi zamon atamasini ishlatish mantiqan to'g'ri emas. Chunki atamada o'tgan zamon ma'nosi ifodalanmagan. Shu bilan bir qatorda ularga nisbatan doimiy zamon, umumzamon atamalarining ishlatilishi ham masala mohiyatini chigallashtiradi. Yuqorida aytganimizdek, tilda o'tgan, hozirgi, kelasi zamondan boshqa zamon yo'q. Bizningcha, jahondagi aksar tillarda bo'lgani kabi nutq momenti tarkibiga kiruvchi doimiy harakat-holatlar, umuman hozirga ham oid turg'un xususiyatlar ifodasi hozirgi zamon doirasida o'rganilishi kerak. Bunda misollar-

dagi *sevish*, *o'qish* harakat-holatlarining qachondandir boshlangani va qachongachadir davom etishidan qat'i nazar nutq momentida ham yuz berayotganligi asosga olinadi. Masalan, ingliz tilida ham xuddi shunday umumzamon ma'nosini beruvchi ***I love my profession*** (*Men kasbimni sevaman*), ***My brother studies at school*** (*Ukam maktabda o'qiydi*) kabi misollarning zamoni ham oddiy hozirgi zamon (Present simple) sifatida belgilanadi. *-r (-ar)* shaklining hozirgi o'zbek tilida hozirgi zamonda qo'llanilishi nisbatan kam bo'lib, ko'proq maqol va hikmatlar tarkibida uchraydi. Demak, bu shaklda bugungi kunda kelasi zamon ma'nosi yetakchilik qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *-a (-y)* shakllarini ham kelasi zamonga, ham hozirgi zamonga tegishli shakl sifatida qarash lozim. Ularning qaysi zamonga ishora qilayotganligi kontekstdan kelib chiqib aniqlanadi. Buning natijasida hozirgi-kelasi zamon deb nomlangan sun'iy zamondan voz kechiladi Zero, bunga o'xshash holat fe'l nisbatlari doirasida ham kuzatilib, *-n*, *-in*, *-l*, *-il* shakllari ham o'zlik, ham majhul nisbatga tegishli hisoblanadi.

Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarni tasniflashda ularning kontekstga aloqador holatda anglatadigan xilma-xil ma'nolari ikkinchi darajali bo'lib, birinchi navbatda zamon chizig'ida harakat va holat sodir bo'lgan/sodir bo'ladigan vaqtning nutq momentiga nisbatan qay darajada uzoqligi yoki yaqinligi, muayyan vaqtda harakat va holatning tugallanganligi, davom etayotganligi yoki boshlanmaganligi kabi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Fe'l funksional shakllarining zamonga munosabati ham o'ziga xos. Ular kesimdan boshqa vazifada kelganda nutq momentiga munosabatni turlicha ifodalaydi. Harakat nomida zamonga ishora qiluvchi maxsus grammatik shakl mavjud emas, u otga xoslanganligi bois asosidagi harakat-holatni jarayon nomi sifatida ifodalaydi. Harakat nomidan muayyan zamonga munosabat anglashilmaydi. U kesim vazifasida kelganda yordamchi fe'llar yoki nol shakl orqali zamonga munosabati reallashtiriladi.

Ravishdosh ham zamonga ishora qiluvchi biror maxsus shaklga ega emas va o'zicha aniq bir zamoni ifodalay olmaydi. Ravishdosh asosidagi harakat-holatning qaysi zamonga ishora qilishi asosiy kesim zamonidan kelib chiqib aniqlanadi. Shu sababli A. G'ulomov ravishdoshdagi zamoni nisbiy zamon sifatida baholaydi [Фуломов 1954, 22]. *Tugatib*, *bajarmay*, *kelgach* kabi ravishdosh shakllari o'zicha biror zamonga ishora qilmaydi. Masalan: *Ishni tugatib bordim* gapida tugatish harakati ham, borish harakati ham o'tgan zamonga oid bo'lsa, *Ishni tugatib boraman* gapida tugatish harakati ham,

borish harakati ham kelasi zamonga ishora qiladi. Demak, ravishdoshlar o'zi mustaqil muayyan zamon ma'nosini anglatmaydi.

Fe'lning vazifa shakllaridan sifatdosh o'zi mustaqil tarzda zamonga ishora qila olish xususiyatiga ega. Sifatdoshda o'tgan zamon uchun *-gan* shaklidan, hozirgi zamon uchun – *(a)yotgan* shaklidan, kelasi zamon uchun *-ydigan, -adigan, -r, -ar, -vchi, -uvchi* shakllaridan foydalaniladi. Sifatdoshning kelasi zamonini ifodalovchi *-(y)ajak, -gusi* shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilida kam qo'llanilib, asosan *bo'l, kel* fe'llari bilan ishlatiladi. Gap takibidagi sifatdosh va kesim bir xil zamoni anglatishi ham, boshqa-boshqa zamon ma'nosini anglatishi ham mumkin.

Masalan: *Ko'rganini (o'tgan zamon) aytdi (o'tgan zamon). Topshiriqni bajargan (o'tgan zamon) o'quvchilar taqdirlanadilar (kelasi zamon).*

Jahon tilshunosligida 1947-yilda H.Reichenbach tomonidan zamon kategoriyasining SRE (o'zbekcha NIH, bunda N – nutq momenti, I – ishora vaqt, H – harakat-holat sodir bo'lgan vaqt) uchligi bilan formallashtirilishi [Reichenbach 1947, 287-298] keyingi davr tilshunoslari B. Komri, V.Kleinlar tomonidan ham e'tirof etildi va qisman takomillashtirildi [Komri 1985, 139; Klein 1994, 98]. Bugungi kunda ham fe'l zamonlarini tushunish va tushuntirishda NIH eng muhim jihat bo'lib qolmoqda. Zamon kategoriyasining lingvistik universalialardan ekanligi bu tizimni boshqa tillarga ham tatbiq etishga imkon bergan. O'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi tadqiqiga oid ishlarda vaqtning ikki nuqtasi: nutq momenti (N) va harakat-holat sodir bo'lgan vaqt (H) haqida gap boradi. Vaqtning yana bir nuqtasi – ishora vaqt alohida ajratilmaydi. Ishora vaqt matnda qachon so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlar (payt ravishlari, payt otlari, sonlar), shuningdek, gapda bir nechta harakat-holat ifodalanganda ular o'rtasidagi zamon bilan bo'g'liq munosabatlar orqali reallashadi. Bundan tushuniladiki, ko'p hollarda ishora vaqtning harakat-holat vaqti bilan bir paytga to'g'ri kelishi manbalarimizda uning alohida ajratilmasligiga sabab bo'lgan. Bu uch nuqtaning munosabatida “=” belgisi ikki tomonidagi nuqtalarning bir vaqtga to'g'ri kelishni, “>” belgisi o'ng tomondagi nuqtaning chap tomondagi nuqtadan oldin yuz berganligini, “<” belgisi esa aksincha, o'ng tomondagi nuqtaning chap tomondagi nuqtadan keyin yuz berganligini ifodalaydi. “=” belgisi esa chap tomondagi nuqtaning o'ng tomondagi nuqta tarkibiga tegishli ekanligini anglatadi.

O'tgan zamon (N>I=H)

Masalan: *U kecha keldi.* (Bunda “kecha” ishora vaqti bilan “ke-

lish" harakat vaqti bir paytga teng keladi, har ikkalasi N – nutq momenti "hozir"dan oldin yuz bergan.

Hozirgi zamon (N=I=H)

Masalan: *Men xat yozyapman.* (Bunda nutq momenti ham, ifodalanmasa-da mantiqan tushuniladigan "hozir" – ishora vaqti ham, "yozish" harakati vaqti ham bir paytga to'g'ri keladi.

Kelasi zamon (N<I=H)

Masalan: *Sizlarnikiga boramiz.* (Bunda "borish" – harakat vaqti va mantiqan tushuniladigan "hozirdan keyin" – ishora vaqti "hozir" – nutq momentidan keyin sodir bo'ladi.

Ingliz tilida ham oddiy (simple) zamonlarda bu ikki vaqt turi bir nuqtada bo'ladi va nisbatan ahamiyatsizdek tuyuladi. Biroq natijaga asoslangan (perfect) zamonlarni tushuntirishda ishora vaqti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida ham bir qator grammatik shakllarning zamonga munosabatini ochishda ba'zan ishora vaqtini alohida ajratib ko'rsatishga ehtiyoj tug'iladi. Masalan: *-gan* shaklida subyekt o'tgan zamonda bajargan harakat-holat natijasini nutq momentida ham mavjud belgi, holat sifatida ifodalash xususiyati ham bor. Masalan: *Uylanganman.* Ushbu gapda zamon nuqtalari N=I>H tarzida munosabatda bo'ladi. Bunda "uyulanish" harakat vaqti oldin o'tgan zamonda sodir bo'lgan, biroq gapda nutq momentida mavjud natijaga e'tibor qaratilmoqda. Bu natija ishora vaqti – hozirda ham bor. Shu sababli bu holda nutq momenti va ishora vaqti bir paytga teng kelgan. Ingliz tilida bu holat hozirgi zamon (Present Perfect) doirasida qaralsa-da, biroq o'zbek tilida fe'l asosidagi harakatning o'tgan zamonda yuz berganligi va *-gan* shaklining boshqa hollarda ham qo'llanilishi e'tiboridan o'tgan zamon shakli sifatida qaralaveradi.

Bundan tashqari *-gan edi* shaklida zamon nuqtalar N>I>H tarzida, *-gan bo'l+a+shaxs-son* shaklida esa N<I>H holatida bo'ladi.

Masalan: *Biz borganimizda Zinnura ishlarini tugatgan edi.*

Ushbu gap zamoni N>I>H tarzida belgilanadi, ya'ni zamon o'qida nutq momentidan oldin ishora vaqtda "borish" harakati sodir bo'lgan, bundan ham oldin esa "tugatish" harakat vaqtida amalga oshgan. Buni xronologik ketma-ketlikda ifodalaymiz: 1) ishlarni tugatish; 2) bizning borishimiz; 3) hozir.

Soat uchda poyezd ketgan bo'ladi. Bu gapning zamonga munosabati N<I>H ko'rinishida belgilanadi, ya'ni nutq momenti – "hozir", ishora vaqti – "soat uch", harakat vaqti – "poyezdning ketish" vaqti. Ketma-ketligi: 1) hozir; 2) poyezdning ketishi; 3) soatning uch bo'lishi.

O'zbek tilidagi zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning formal tasnifini Reichenbachning uchligidan kelib chiqib amalga oshirishda ularning german tillari zamon tizimi bilan umumiy jihatlari bo'lishi bilan bir qatorda ko'plab o'ziga xosliklarga ham ega ekanligini esda tutish lozim. Bu o'ziga xoslik asosan tilimizda zamonlarning perfekt ko'rinishi alohida ajratilmasligi, perfekt ma'nosini ifodalaydigan shakllarning boshqa ma'nolarni ham anglatishi bilan bo'g'liq. NIH uchligi asosida o'zbek tilidagi zamon shakllarining tasnifini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

I.O'tgan zamon shakllari:

I.1. N>I=H strukturasi ifodalaydigan umumiy o'tgan zamon shakllari: **-di, -b (-ib), edi.**

I.2. N=I>H strukturasi ifodalaydigan natijali o'tgan zamon shakli: **-gan (-kan, -qan)**

I.3. N>I>H strukturasi ifodalovchi uzoq o'tgan zamon shakllari: **-gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi)**

I.4. N>IH strukturasi ifodalaydigan davomli o'tgan zamon shakllari: **-r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi**

I.5. N>I>H strukturasi ifodalovchi maqsadli o'tgan zamon shakllari: **-ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi, -moqchi edi, -moqchi bo'ldi, -moqchi bo'lgan**

II.Hozirgi zamon shakllari:

II.1. N=I=H strukturasi ifodalovchi umumiy hozirgi zamon shakli: **-a (-y)**

II.2. N=I H strukturasi ifodalovchi davomli hozirgi zamon shakllari: **-yap, -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan (-ayotgan)**, shuningdek, **yurmoq, turmoq, o'tirmoq, yotmoq** fe'llarining ko'makchi fe'l va holat fe'li sifatida hozirgi zamon ma'nosida qo'llanilishi.

III.Kelasi zamon shakllari:

III.1. N<I=H strukturasi ifodalovchi umumiy kelasi zamon shakllari: **-a (-y), -r (-ar), -moqchi, -ydigan (-adigan), -ajak (-yajak), -gay (-kay, -qay), harakat nomi+shaxs-son+kerak/lozim/shart/darkor/mumkin.**

III.2. N<I>H strukturasi ifodalovchi natijali kelasi zamon: **-gan bo'l+a+shaxs-son (-kan bo'l+a+shaxs-son, -qan bo'l+a+shaxs-son).**

III.3. N<IH strukturasi ifodalovchi davomli kelasi zamon: **-yotgan (-ayotgan)+bo'l+a+shaxs-son.**

Gapda ifodalangan harakat va holatlarning nutq momentiga

munosabati odatda kesim bo'lagi orqali aniqlanadi. Kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan holatlarda ham u muayyan bir zamonga ishora qiladi. Zamonning ko'p manbalarda fe'lga xos xususiyat sifatida berilishi ham aynan fe'lning asosan kesim vazifasini bajarishga xoslanganligi bilan bog'liq. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari kesim vazifasida kelganda ham yordamchi fe'llar zamon ma'nosini reallashtiradi yoki nol grammatik ko'rsatkich hozirgi zamon sifatida qaraladi.

Masalan: U – shifokor. (hozirgi zamon). U yaxshi odam edi. (o'tgan zamon). U kelajakda o'qituvchi bo'ladi. (kelasi zamon).

Xulosa

Umuman olganda, inson ongida ikki va undan ortiq harakat va holatlar o'zaro davriy munosabatlari asosida o'rinlashadi. Bunday davriy munosabatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: o'zaro ketma-ketlik, bir vaqtda sodir bo'lish, qisman kesishish, birining tarkibida boshqasining davom etishi kabilar. Bu munosabatlar asosan qo'shma gap tarkibida, shuningdek, tarkibida ikki va undan ortiq harakat va holatlarni qamrab olgan sodda gaplar tarkibida yuzaga chiqishi mumkin. Qolaversa, har qanday harakat va holatlar obyektiv zamonning muayyan momentiga nisbatan yo tugallangan, yo davom etayotgan, yo boshlanmagan holatlardan biriga mansub bo'ladi.

Adabiyotlar

- Comrie, B. 1985. *Tense*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Ҳожиёв, А. 1973. *Феъл*. Тошкент: Фан.
- Ҳожиёв, А. 1975. "*Феъл замонлари*". Ўзбек тили грамматикаси. I. Морфология. Тошкент: Фан. 475-503.
- Жўраева, Ж. 1961. *Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида келаси замон феъли*: Фил. фан. номз...дисс. Тошкент.
- Жўраева, Ж. 1966. "*Феъл замонлари*". Ҳозирги ўзбек адабий тили I. Тошкент. 288-294.
- Klein, W. 1994. *Time in language*. London: Routledge.
- Мирзаев, М., Усмонов, С., Расулов, Р. 1970. *Ўзбек тили*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Мусулмонова, Н. 2007. *Грамматик шаклларда категориялар, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида)*: Фил. фан. номз... дисс. Тошкент.
- Reichenbach, H. 1947. *Elements of Symbolic Logic*. New York: Macmillan & Co.
- Сулаймонов, А., Ҳожиёв, А., Жўраева, Ж. 1962. *Феъл замонлари*. Тошкент: Фан.

Турсунов, У., Мухторов, Ж., Раҳматуллаев, Ш. 1975. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Тошкент: Ўқитувчи.
Ғуломов, А. 1954. *Феъл*. Тошкент: Фан.

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics

Khonnazarov Elyor¹

Abstract

Some classification of grammatical tense in Uzbek linguistics have been studied in the article. Although the temporal category is one of the most studied topics, there is no consensus on the amount and classification of grammatical forms. Also, some classifications do not cover all grammatical forms. One of the reasons for these differences in classifications is the fact that the categories of tense and mood are inextricably linked in the Uzbek language. In addition, the term present-future tense, separated in classifications, has been interpreted differently by linguists. In world linguistics, the classification of tense is based on three points of time: the moment of speech (S), the reference time (R) and the moment of event (E). The grammatical tense in the Uzbek language is classified based on the SRE relations in the article.

Key words: *tense, classification of grammatical tense, past tense, present tense, future tense, the moment of speech, a reference point, the moment of event.*

References

- Comrie, B. 1985. *Tense*. Cambridge: Cambridge University Press.
Hojiyev, A. 1973. *Fe'l*. Toshkent: Fan.
Hojiyev, A. 1975. "*Fe'l zamonlari*". O'zbek tili grammatikasi. I. Morfologiya. Toshkent: Fan. 475-503.
Jo'rayeva, J. 1961. *Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida kelasi zamon fe'li*: Fil. fan. nomz...diss. Toshkent.
Jo'rayeva, J. 1966. "*Fe'l zamonlari*". Hozirgi o'zbek adabiy tili. I. Toshkent. 288-294.
Klein, W. 1994. *Time in language*. London: Routledge.

¹ Elyor G. Khonnazarov – PhD Student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

For citation: Khonnazarov, E. G. 2022. "Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 55-65.

Mirzayev, M., Usmonov, S., Rasulov, I. 1970. *O'zbek tili*. Toshkent: O'qituvchi.

Musulmonova, N. 2007. *Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida)*: Fil. fan. nomz... diss. Toshkent.

Reichenbach, H. 1947. *Elements of Symbolic Logic*. New York: Macmillan & Co.

Sulaymonov, A., Hojiyev, A., Jo'rayeva, J. 1962. *Fe'l zamonlari*. Toshkent: Fan.

Tursunov, U., Muxtorov, J., Rahmatullayev, Sh. 1975. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'qituvchi.

G'ulomov, A. 1954. *Fe'l*. Toshkent: Fan.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 31.03.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.